

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**HIKMATOV AKMAL SADULLOYEVICH**

**NEVROLOG SHIFOKORLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK  
KOMPETENTLIGINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**Hikmatov Akmal Sadulloyevich**

Neurolog shifokorlar ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'ziga xos jihatlari.... 3

**Хикматов Акмал Садуллоевич**

Особенности социально-психологической компетентности врачей  
неврологов..... 29

**Hikmatov Akmal Sadulloyevich**

Characteristic properties of socio psychological competence of neurologists ..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 62

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**HIKMATOV AKMAL SADULLOYEVICH**

**NEVROLOG SHIFOKORLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK  
KOMPETENTLIGINING O'ZIGA XOS JIHA TLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.3.PhD/P612.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного Совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Назаров Акмал Мардонович  
доктор психологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** Уразбаева Дилбар Абдуллаевна  
доктор психологических наук (DSc), доцент

Мухторов Эркин Мустафаевич  
кандидат психологических наук, доцент

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «13» апрель 2024 года в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета Phd.03/30.12.2019.Psi.72.06 при Бухарском государственном университете. Главное здание Бухарского государственного университета, 2-й этаж, зал заседаний. (Адрес: 200118, город Бухара, улица Мухаммада Икбола, дом 11. Тел. + 998 365 221-29-14; факс: + 998 365 221-27-57; e-mail: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № A 1601). (Адрес: город Бухара, улица Мухаммада Икбола, дом 11. Тел.: + 998 65 221-29-14; факс: + 998 65 221-27-07. Главное здание Бухарского государственного университета, 2-й этаж).

Автореферат диссертации разослан «30» март 2024 года  
(протокол реестра рассылки № 19 от «30» март 2024 года).

  
А.М. Жабборов  
заместитель председателя Научного совета  
по присуждению ученых степеней, доктор  
психологических наук, профессор

Ш.Ш. Рустанов  
ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
философии по психологическим наукам  
(PhD)

А.А. Хусейнова  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор философских наук,  
профессор

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda malakali, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, sifatli kadrlar tayyorlash, mutaxassislarning kompetentlik masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi davrda zamonaviy kadrlar tayyorlashning eng muhim xususiyati shundaki, mutaxassislarga o'z sohasi bo'yicha zamonaviy bilim berish, balki, shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shifokorlarning kompetentlik muammosi XX asrning 90-yillarida YUNESKO dasturlarida maxsus ko'rsatma sifatida qayd etilgan<sup>1</sup>. Tibbiyot sohasida nufuzli hisoblangan «The Lancet» jurnali ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyoda har 10 ming aholi soniga shifokorlar soni eng ko'p bo'lgan mamlakatlar Kanada, Shveysariya, Italiya va Rossiya bo'lib, ushbu davlatlarda har 10 ming aholi soniga 50-66 nafargacha shifokor va 60 dan ortiq yordamchi tibbiy xodim to'g'ri kelishi aniqlangan. Dunyoda o'ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ayniqsa, nevrolog shifokorlarning faoliyatiga qo'yiladigan talablar, ularning kasbiy, shaxsiy va intellektual salohiyatini oshirish, kompetentlik muammosini ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda nevrolog shifokorlarning kompetentligini ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish va mexanizmlarini takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus dasturlar majmuasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoda zamonaviy tibbiyot hozirgi kungacha yutuqlarga erishishiga asosiy sabab bu ilmiy izlanishlarning natijasi amaliyotga muvaffaqiyatli qo'llanishi hisoblanadi. Hozirgi kunda tan olingan va juda ko'p davlatlarda amal qilinayotgan tibbiyot bu «Dalillarga asoslangan tibbiyot» joriy qilinmoqda (ingliz tilida «Evidence Based Medicine»). Dunyo davlatlarida zamonaviy tibbiyotning kirib borishi va uni rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan o'sha davlatlarda faoliyat yuritib kelayotgan shifokorlarning zamonaviy tibbiy bilimga ega bo'lishi, o'z sohasini tushunishi, yangiliklarni qabul qilishi va kasbiy etik qoidalariga amal qilishi bilan belgilanmoqda. Shu bilan birgalikda, nevrolog shifokorlarning psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va mexanizmlarini takomillashtirish, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda: «Aholiga tibbiy va ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga,

---

<sup>1</sup> Naisbitt J., Aburdene P. Mega-trends 2000. - N.Y., 1990; Towards developing new teacher competencies in response to mega-trends in curriculum reforms. - Bangkok, 1992.

tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini muatahkamlashga yo'naltirilgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish»<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Nevrolog shifokorlarning kompetentligini takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yangicha yechimlarni izlab topish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli, 2018 yil 7 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5590-sonli Farmonlari, 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4190-sonli, 2021 yil 25 maydagi «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5124-sonli Qarorlarida va bu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi muammosi aynan tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilmagan bo'lsada, tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentligi, tibbiyot psixologiyasiga oid masalalarni Sh.H.Abdullayeva, N.D.Ahmedova, Z.R.Ibodullayev, I.M.Latipov, R.N.Melibayeva, D.U.Mamadiyarova, Y.K.Narmetova, D.A.Sobirova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Y.A.Aleksandrovskiy, V.Ageyev, D.M.Aranov, A.V.Batarshev, V.M.Bleyxer, M.Bobneva, I.Demidova, V.M.Zaysev, Y.Makarov, M.Mileyko, V.N.Myasishev, Yu.Saricheva, G.V.Starshenbaum; Y.Shelkova va boshqalar tibbiy, neyropsixik va psixosomatik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolash va tiklash vazifalari, bemorlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan T.Buchanan, M.F.Green, G.J.Jogerst, A.Jorm, Z.S.Nasreddine, N.A.Phillips, A.Puente va boshqalarning izlanishlarida kasalliklarni davolashning xususiy holatlarida psixodiagnostik vositalaridan foydalanish, kompetentlikning tibbiy va ijtimoiy-psixologik jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – №6 (766). – 70 modda. – Toshkent: Adolat, 2017. – B. 38.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** nevrolog shifokorlar ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish asosida uni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ijtimoiy-psixologik kompetentlikni mehnat tajribasiga bog'liq ravishda namoyon bo'lishining dinamik xususiyatlarini tadqiq etish;

nevrolog shifokorlarning sotsial-kommunikativ kompetentligi xususiyatlarini faktorli tahlil qilish orqali ustuvor komponentlarni aniqlash va tahlil qilish;

nevrolog shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni strukturaviy jihatdan tahlil qilish va kommunikativ kompetentlik bilan o'zaro bog'liqlik jihatlarini aniqlash;

nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** nevrolog shifokorlarning kompetentligining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish bo'lib, Toshkent tibbiyot akademiyasi 1- va 3-klinikalarining nevrologiya bo'limidan 68 nafar, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti «Nevrologiya va neyrorabilitatsiya markazi» klinikasidan 44 nafar, Buxoro viloyati ko'ptarmoqli tibbiyot markazining 41 nafar, Buxoro viloyatidagi «Carmen plus» va «Diagnostic center» xususiy klinikalaridan 12 nafar, jami 165 nafar nevrolog shifokorlar respondent sifatida jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'ziga xos jihatlari o'rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada muallifning ilmiy rahbari professor A.M.Nazarov bilan hammualliflikda ishlab chiqilgan «Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik indeksi» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi (IPS), V.N.Kunisinaning «Kommunikativ va ijtimoiy kompetentlikni aniqlash» so'rovnomasi, N.P.Fetiskin, V.V.Kozlovning «Sotsial-kommunikativ kompetentlikni aniqlash» so'rovnomasi, R.V.Ovcharovanning «Sotsial-kommunikativ kompetentlik» so'rovnomasi, korrelyatsion tahlil, Styudentning t-mezoni usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nevrologlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning mehnat tajribasiga bog'liq holda namoyon bo'lishi natijasida shifokorning o'z professional imidjini shakllanishi bilan bog'liq shaxs xususiyatlari shaxslararo munosabatlarda verbal ta'sir etish ko'nikmasini faollashuviga olib kelganligi tufayli tibbiy muloqotdagi kommunikativ kompetentlikning ustuvor rivojlanishi dalillangan;

nevrolog shifokorlarning sotsial-kommunikativ kompetentligi xususiyatlarini faktorli tahlil qilish natijasida suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini anglashi,

tushunishi, o'zaro paralingvistik, tarbiyaviy ta'sir mexanizmlaridan unumli foydalana olish ko'nikmasini rivojlanganlik darajasi ijtimoiy yo'nalganlikni oshirganligi tufayli «muloqotchanlik», «mantiqiy tafakkur», «emotsional barqarorlik»ning ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslangan;

nevrolog shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik indeksini belgilab beruvchi sotsial-perseptiv, kommunikativ, kognitiv, autopsixologik komponentlar shaxslarni hamda vaziyatni tushunish, emotsional barqarorlik, konstruktiv insoniy munosabatlarni o'rnatishga intilish bilan bog'liq ijtimoiy yo'nalganlik hamda bilimdonlikni ustuvor namoyon bo'lishiga olib kelganligi sababli professional imidjni shakllanishini ta'minlovchi shaxs sifatlarini rivojlanishiga identiv namoyon bo'lishi asoslangan;

«shifokor-bemor va uning yaqinlari», «shifokor-shifokor» munosabatlari tizimlarida konstruktiv muloqotning rivojlanishi kommunikativ passivlikni, frustratsiyani yengishga, shaxslararo munosabatlardagi mavhumlikni muvofiqlashtirishga hamda shaxsning o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik jihatlariga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi tufayli nevrologlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllanganlik darajasiga identiv ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nevrolog shifokorlarning kompetentligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar o'rganilib, uning faoliyatda namoyon bo'lish jihatlari tavsiflangan;

nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma ishlab chiqilgan, shuningdek, ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining shakllanganlik darajasini tadqiq etish maqsadida psixodiagnostik metodikalar tizimlashtirilgan va amaliyotda qo'llanilgan;

nevrolog shifokorlarning kompetensiyalarini shakllantirishga doir ijtimoiy-psixologik treninglar ishlab chiqilgan va shifokorlarning kompetentligiga psixologik ta'sir ko'rsatish usullari tizimlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoni aniq qo'yilganligi, tanlangan metodikalarning validligi, to'planning reprezentativligi, natijalarning ishonchligi, qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi (korrelyatsion tahlil, Styudentning t-mezoni) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tibbiyot sohasidagi xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi mexanizmlarini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik tasavvurlarni boyitish, tadqiqot natijasidan olingan empirik ma'lumotlar nevrolog shifokorlarning faoliyati samaradorligini oshirishi «Tibbiyot psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Klinik psixologiya» kabi fanlarning yangi ma'lumotlari bilan to'ldirishi hamda tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish jarayonlarida qo'llanilishi bilan

izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati nevrolog shifokorlarning kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi va ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan trening dasturini qo'llash imkoniyati bilan belgilanib, dissertatsiya ishi natijalaridan nevrolog shifokorlarni malakasini oshirishda, tibbiyot psixologiyasi, psixogenetika, ijtimoiy psixologiya fanlari bo'yicha o'quv dasturi, qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, ma'ruza matnlari hamda amaliy mashg'ulotlarda qo'llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'ziga xos jihatlari masalasini tadqiq etish natijasida:

nevrologlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning mehnat tajribasiga bog'liq holda namoyon bo'lishi natijasida shifokorning o'z professional imidjini shakllanishi bilan bog'liq shaxs xususiyatlari shaxslararo munosabatlarda verbal ta'sir etish ko'nikmasini faollashuviga olib kelganligi tufayli tibbiy muloqotdagi kommunikativ kompetentlikning ustuvor rivojlanishi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 7-avgustdagi PM-43-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nevrolog shifokorlarda kommunikativ kompetentlik namoyon bo'lishi xususiyatlari tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

nevrolog shifokorlarning sotsial-kommunikativ kompetentligi xususiyatlarini faktorli tahlil qilish natijasida suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini anglashi, tushunishi, o'zaro paralingvistik, tarbiyaviy ta'sir mexanizmlaridan umumli foydalana olish ko'nikmasini rivojlanganlik darajasi ijtimoiy yo'nalganlikni oshirganligi tufayli «muloqotchanlik», «mantiqiy tafakkur», «emotsional barqarorlik»ning ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrug'i bilan «Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 7-avgustdagi PM-43-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nevrolog shifokorlarda bemor-shifokor munosabatlarida tarbiyaviy ta'sir mexanizmlaridan umumli foydalana olish ko'nikmasini rivojlantirishga erishilgan;

nevrolog shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik indeksini belgilab beruvchi sotsial-perseptiv, kommunikativ, kognitiv, autopsixologik komponentlar shaxslarni hamda vaziyatni tushunish, emotsional barqarorlik, konstruktiv insoniy munosabatlarni o'rnatishga intilish bilan bog'liq ijtimoiy yo'nalganlik hamda bilimdonlikni ustuvor namoyon bo'lishiga olib kelganligi sababli professional imidjni shakllanishini ta'minlovchi shaxs sifatlarini rivojlanishiga identiv namoyon bo'lishi asoslanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 7-avgustdagi PM-43-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nevrolog shifokorlarning

differential xususiyatlari shaxs sifatlarida namoyon bo'lishini dalillash imkoniyati yaratilgan;

«shifokor-bemor va uning yaqinlari», «shifokor-shifokor» munosabatlari tizimida konstruktiv muloqotning rivojlanishi kommunikativ passivlikni, frustratsiyani yengishga, shaxslararo munosabatlardagi mavhumlikni muvofiqlashtirishga hamda shaxsning o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik jihatlariga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhimligi tufayli nevrologlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllanganlik darajasiga identiv ekanligi isbotlanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-41-sonli buyrug'i bilan «Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 7-avgustdagi PM-43-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nevrolog shifokorlarda kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixokorreksion amaliy-uslubiy ta'minotni shakllantirish usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 128 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Nevrolog shifokorlar ijtimoiy-psixologik kompetentligi to'g'risidagi qarashlarning tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi, ularning mexanizmlarini takomillashtirish, nevrolog shifokorda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyat doirasida namoyon bo'lishi va unga ta'sir etuvchi omillarni rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning nazariy tahlillar keltirilgan. Shu boisdan ham mazkur bobda kompetentlik muammosi bo'yicha xorij olimlari hamda mamlakatimiz psixologlarining mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari umumlashtirilgan.

Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-

psixologik kompetentligi borasida bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G.Y.Ayzenk, Dj.Raven, D.Goulman, E.F.Zeer, V.A.Kan-Kalik, D.G.Mayers, G.U.Olport, J.F.Piaje, A.D.Palmer, A.A.Rean, K.R.Rodjers R.Torndayk, G.Gardner, J.Mayer va boshqalarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik to'g'risidagi fikrlariga sharhlar berilgan.

Rus olimlaridan A.A.Bodalev, Y.K.Babanskiy, N.A.Kuzmina, LA.K.Markova, L.M.Mitina, E.A.Mileryan, Z.A.Reshetova, S.L.Rubinshteyn, N.V.Samoukina, V.D.Shadrikov. P.A.Shavir kabilar kompetentlik muammosi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbek olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, F.F.Ganjiyev, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, G'.A.Normurodov, A.A.Rasulov, Sh.Sh.Rustamov, N.S.Safoyev, R.S.Samarov, B.M.Umarov, L.Y.Olimov, D.A.Sobirova, G.Sh.Salomova singari olimlar kompetentlik muammosiga oid tadqiqotlar o'tkazgan.

Umuman olganda, kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlikka ega bo'lish har bir shifokordan o'z ustida ishlashni talab qiladi. Tabiiyki, kompetentlik amaliy ish tajribasi asosida shakllanadi. Biroq, har qanday tajriba ham kasbiy kompetentlik manbai bo'la olmaydi. Kompetentlikni asosi bilim, ko'nikma va malakalar, faoliyatning aniq maqsadga yo'nalganligi, faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish, shuningdek, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning asosida shaxsning irodaviy sifatleri bevosita namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi omillarning tadqiq etilishi**» deb nomlangan bo'lib, unda nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini o'rganishda qo'llanilgan metodikalarning uslubiy tamoyillari, tanlangan obyektlarning psixologik tavsifini ishlab chiqish, ijtimoiy-psixologik kompetentligining kommunikativ va sotsial kompetentlik omillari to'g'risidagi tahlillar, tadqiqotda tanlab olingan respondentlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida mazkur tadqiqot uchun ishlab chiqilgan psixologik so'rovnoma hamda uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan. Shuningdek, nevrolog shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish, faoliyatning davomiyligi bilan bog'liq omillarini aniqlash va ular o'rtasida korrelyatsion bog'lanishlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Endi bevosita Toshkent tibbiyot akademiyasi 1- va 3-klinikalari, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti «Nevrologiya va neyroreabilitatsiya markazi» klinikasi, Buxoro viloyati ko'ptarmoqli tibbiyot markazi, Buxoro viloyatidagi «Carmen plus» va «Diagnostic center» xususiy klinikalarida faoliyat olib borayotgan 165 nafar nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligiga bevosita bog'liq mezonlarni tahlil qildik. Buning uchun dastlab, V.N.Kunisinaning «Kommunikativ va ijtimoiy kompetentlikni aniqlash» so'rovnomasi (1-jadval) asosida olingan natijalar tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Keltirilgan natijalarga (1-jadval) ko'ra, besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorda «sotsial psixologik kompetentlik» (9,07), «operativ

ijtimoiy-psixologik kompetentlik» (8,88), «kommunikativ kompetentlik» (9,63), «barqaror insoniy munosabatlar» (9,27) shkalalari bo'yicha past ko'rsatkichni ko'rsatdi. Bu esa shifokorlarni bemorlar bilan ishlash, faoliyatni tashkil qilish va bemorlarni ko'rikdan o'tkazish jarayonida xususan, bemorlar bilan olib boriladigan psixodiagnostik ishlar va tibbiy xulosasini rasmiylashtirish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazish kuzatildi. «Imidj» (10,46), «verbal kompetentlik» (10,80), «insonlarni tushunish» (10,34), «vaziyatlarni tushunish» (10,39), «muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi» (10,12), «ego kompetentlik» (10,00) shkalalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich yaqqol namoyon bo'lganligini ijobiy holat sifatida qayd etildi.

**1-jadval.**

**Nevrolog shifokorlardagi kommunikativ va ijtimoiy kompetentlikni rivojlanganlik darajasi (n=165)**

Omillar	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>1</sub> =75		besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>2</sub> =90		P
	M	S	M	S	
Insonlarni tushunish	10,34	3,25	13,02	4,01	0,05
Vaziyatlarni tushunish	10,39	3,79	12,44	3,62	0,05
Uddaburonlik	9,41	3,36	12,92	3,58	0,05
Axloqiy ustanovkalar	10,32	4,12	13,08	3,11	0,05
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	10,12	3,00	13,46	3,89	0,05
Emotsional barqarorlik	10,76	3,28	12,67	3,95	0,05
Imidj	10,46	3,11	14,43	3,21	0,05
Sotsial psixologik kompetentlik	9,07	2,90	14,20	3,19	0,05
Verbal kompetentlik	10,80	3,49	12,95	3,25	0,05
Operativ sotsial-psixologik kompetentlik	8,88	2,92	12,46	3,33	0,05
Ego kompetentlik	10,00	3,65	13,77	3,61	0,05
Kommunikativ kompetentlik	9,63	3,90	13,61	3,47	0,05
Ishonchlilik	10,34	3,94	13,87	3,50	0,05
Barqaror insoniy munosabatlar	9,27	4,03	13,20	3,43	0,05
Kommunikativ shaxslilik imkoniyati	9,34	3,45	13,49	3,65	0,05

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01.

Mazkur metodikadan olingan natijalar tahlili bo'yicha besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan shifokorlarning o'z professional imidjini (imidj va ego-kompetentlik)

shakllanishi bilan bog'liq shaxs xususiyatlari (vaziyatni, insonlarni tushunish, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi) nutqiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmasini faollashuviga olib kelishi aniqlangan. Shu boisdan yosh mutaxassislarda kompetentlikning sotsial komponentlarini rivojlantirdik. Aksincha, besh yildan ortiq faoliyat yuritgan nevrolog shifokorlarda barcha shkalalar bo'yicha o'rtacha yoki yuqori ko'rsatkichlarni namoyon bo'ldi. Shifokor va bemorlar o'rtasidagi munosabatlarini to'g'ri tashkil qilish hamda ta'sir o'tkazish jarayonida ularni adekvat baholash imkonini beradi.

Tadqiqotimizda qo'llanilgan navbatdagi metodikamiz N.P.Fetiskin va V.V.Kozlovning «Sotsial-kommunikativ kompetentlikni aniqlash» so'rovnomasi bo'lib, respondentlarimizda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sotsial komponentlari tahlil qilindi (2-jadval). Quyidagi 2-jadvalda tadqiqot natijalari keltirilgan.

## 2-jadval.

### Nevrolog shifokorlardagi sotsial-kommunikativ kompetentlikni rivojlanganlik darajasi (n=165)

Omillar		besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>1</sub> =75		besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>2</sub> =90		p
		M	S	M	S	
«A» omil	Muloqotchan	11,4	3,46	16,2	3,37	0,05
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	15,9	3,52	11,5	1,54	0,05
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	13,2	2,91	15,8	2,69	0,05
	Zaif fikrlaydigan	14,1	3,61	12,1	1,59	0,05
«C» omil	Barqaror	11,8	2,52	17,2	2,97	0,01
	Beqaror	16,5	2,04	12,3	2,96	0,05
«D» omil	Optimizm	9,2	3,50	14,9	1,46	0,01
	Pessimizm	15,6	1,93	8,2	1,81	0,01
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	13,2	1,93	15,5	1,67	0,05
	Realist	16,2	2,70	11,9	2,73	0,05
«N» omil	O'zini nazorat qila oladigan	13,8	3,38	16,3	3,39	0,05
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	14,8	1,92	10,7	3,39	0,05
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	12,9	1,27	13,7	3,16	0,17
	O'zgalarga yo'nalgan	13,4	2,00	12,9	3,11	0,34

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01.

Nevrolog shifokorlarning sotsial-kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlash metodikasi orqali har ikkala respondentlar guruhidan olingan natijalar

tahlilida statistik farqlar kuzatildi. Jumladan, «muloqotchanlik» ( $t=2,63$ ;  $p\leq 0,05$ ), «muloqotga kirishishga qiynaladigan» ( $t=2,63$ ;  $p\leq 0,05$ ), «mantiqiy fikrlaydigan» ( $t=2,01$ ;  $p\leq 0,05$ ), «zaif fikrlaydigan» ( $t=2,42$ ;  $p\leq 0,05$ ), «ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi» ( $t=2,30$ ;  $p\leq 0,05$ ), «realist» ( $t=1,98$ ;  $p\leq 0,05$ ), «o'zini nazorat qila oladigan» ( $t=2,01$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «nazoratda qiyinchilikka uchraydigan» ( $t=1,82$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillarida o'rta darajada ishonchlilik darajasi aniqlangan bo'lsa, «barqarorlik» ( $t=3,82$ ;  $p\leq 0,01$ ), «optimizm» ( $t=3,72$ ;  $p\leq 0,01$ ) va «pessimizm» ( $t=3,57$ ;  $p\leq 0,01$ ) omillarida yuqori statistik farqlar kuzatildi. «O'ziga yo'nalganlik» ( $t=0,25$ ;  $p\leq 0,17$ ) va «o'zgalarga yo'nalganlik» ( $t=0,63$ ;  $p\leq 0,34$ ) omillarida deyarli farqlar kuzatilmadi.

Tadqiqotimiz natijalari bo'yicha «A» omil bo'yicha «muloqotchanlik» besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorlarga nisbatan besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorlarda 16,2 natijani tashkil qilgan bo'lsa, aksincha, «muloqotga kirishishga qiynalish» 11,4 natijani tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, nevrolog shifokorlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mehnat tajribasi va tajribasining ortib borishi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. «B» omil bo'yicha «mantiqiy fikrlash» darajasi besh yilgacha stajga ega bo'lganlarga nisbatan besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorlarda 15,8 natijani, «zaif fikrlash» darajasi esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan nevrolog shifokorlarda 14,1 natijani tashkil etdi. «Mantiqiy fikrlash» qobiliyati nevrolog shifokorlarning faoliyati uchun muhim jihat bo'lib, bunday qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda eng avvalo, bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyos hisoblanadi. «Barqarorlik» va «beqarorlik» omillari bo'yicha ham besh yildan ortiq tajribaga ega respondentlarda 17,2 natijani qayd etdi. «Beqarorlik» omilida besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan shifokorlarda 11,8 natijani tashkil etdi. Bundan ma'lum bo'ldiki, barqaror ijtimoiy-psixologik munosabatlar yillar davomida shakllanib, taraqqiy qilib boradi. Keyingi mezon, ya'ni, «optimizm» va «pessimizm» omili bo'yicha besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan shifokorlarda optimizm 9,2 natijani, «pessimizm» esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorda 15,6 natijani tashkil etdi. «Optimizm» yuqori kayfiyatda bo'lishi, atrofdagilar bilan ijobiy munosabatga kirishishi 5 yildan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorlarda ustun bo'lsa, «pessimizm» –kayfiyatdagi o'zgarishlar, kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi buzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan nevrolog shifokorlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi.

«K» omili bo'yicha «ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi» besh yilgacha 13,2 natijani, «realistlar» esa 16,2 natijani tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realistik tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin muloqotga kirishish va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi xususiyatlar rivojlanishi kuzatildi.

Keyingi omil bo'yicha «o'zini nazorat qila olish» omili besh yilgacha 13,8 natija, «o'zini nazorat qilishda qiynalish» omili besh yildan ortiq ish tajribasiga ega respondentlarda 10,7 natija kuzatildi. Bu esa faoliyat davomida turli xil ijtimoiy ta'sirlarni nazorat darajasi ham besh yildan ko'proq mehnat tajribasiga ega bo'lgan

shifokorlarda yuqori ekanligi aniqlandi. Bizningcha, buning asosiy sababi, mehnat faoliyati davomida bemor shaxslar bilan nisbatan ko'proq muloqotda bo'lish, ularning ichki motivlari, maqsadlarini tushunish orqali kerakli javob reaksiyasini berish bilan belgilanadi.

So'nggi omil bo'yicha tahlil qilinganda «o'ziga yo'nalغانlik» besh yildan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan respondentlarda 13,7 natijani, «o'zgalarga yo'nalغانlik» 12,9 natijani tashkil qildi. Bunga ko'ra, kommunikatsion muomala jarayonida o'ziga bo'lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to'liq shakllanadi, ungacha esa o'zgalarga ya'ni ijtimoiy muhitga e'tiborni bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 2.2-jadvalda yanada aniqroq o'z aksini topgan.

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishlarda bo'lishi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib borildi va shu tahlil natijalariga asoslanib ularga tibbiy, ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishda aniq vazifalar belgilandi.

Darhaqiqat, tadqiqotda qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlardagi sotsial-kommunikativ kompetentlik (SKK) omillarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq holatlarni aniqlash va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ushbu masalaga ilmiy jihatdan yondashilgan holda taniqli psixologlar N.P.Fetiskin va V.V.Kozlov kabilar tomonidan ishlab chiqilgan sotsial-kommunikativ kompetentlik (SKK) metodikasi imkoniyatlaridan foydalanildi. Zero, tibbiyot muassasalarida faoliyat yurituvchi har qanday shifokorning faoliyat samaradorligi eng avvalo undagi sotsial kommunikativlikning shakllanganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Binobarin, mazkur shifokor bemorlar bilan samarali muloqotga kirisha olmas ekan, ularning kasbiy faoliyatida shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq muayyan darajadagi yetishmovchiliklarni va muammolarni keltirib chiqaradi. Bemorlar bilan shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish kasbiy kompetentlikda namoyon bo'luvchi muhim omillardan sanalanadi. Shundan kelib chiqib, muayyan darajadagi kasbiy kompetentlikka bevosita ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ilmiy mulohaza yuritishni lozim topdik. Empirik mulohazaga muvofiq rus olimlari N.P.Fetiskin va V.V.Kozlovlar tomonidan ishlab chiqilgan oltita omilni o'z ichiga olgan, tibbiyot muassasalarida faoliyat olib borayotgan nevrolog shifokorlarning faoliyatida kompetentlik qay darajada ekanligi aniqlandi va ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Dissertatsion tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini yana bir muhim komponenti hisoblangan kognitivlikni aniqlash uchun R.V.Ovcharovanning «Sotsial-kommunikativ kompetentlik» so'rovnomasini qo'lladik. Olingan natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

**Nevrolog shifokorning sotsial-kommunikativ  
kompetentlik darajasi (n=165)**

Omillar	Besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>1</sub> =75		Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>2</sub> =90		p
	M	S	M	S	
Kommunikativ-passivlikni yengishga yo'nalganlik	10,4	2,19	13,6	1,27	0,05
Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik	13,1	2,37	14,2	1,72	0,18
Kommunikativ konformizmga yo'nalganlik	10,7	2,28	13,5	1,58	0,05
O'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik	14,2	2,92	11,8	2,19	0,05
Kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik	11,5	2,30	12,7	1,12	0,27
Kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik	13,2	2,29	16,4	1,39	0,05

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01.

Sotsial-kommunikativ kompetentlik metodikasi orqali har ikkala respondentlar guruhidan olingan natijalar tahlilida ayrim statistik farqlar kuzatildi. Jumladan, «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik» (t=2,77; p≤0,05), «kommunikativ konformizmga yo'nalganlik» (t=2,63; p≤0,05), «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» (t=2,79; p≤0,05) hamda «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik» (t=2,42; p≤0,05) omillari orasida besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan hamda besh yildan ortiq mehnat tajribasi ega bo'lgan nevrolog shifokorlarning natijalari orasida tafovutlar qayd qilindi. «Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik» (t=1,04; p≤0,18) va «kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik» (t=-1,09; p≤0,27) omillarida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

Kommunikativ omillar orasida ahamiyatli darajada past ko'rsatkichga ega bo'lgan «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik» mezonidir. Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan respondentlarda nisbatan yuqori natijalar qayd etildi. Kommunikativ passivlikni yengish murakkab vaziyatlarda muloqotdan samarali foydalanish, qiyin vaziyatlarda bemorlar bilan o'zaro munosabatlarni

davom ettirish yo'llarini izlash, ekstremal vaziyatlarda adekvat qaror qabul qila olish bilan belgilanadi. Bizga ma'lumki, shifokorlarning kasbiy faoliyati doirasidagi muloqot o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Afsuski, natijalarning o'rtachadan past darajada namoyon bo'lganligi respondentlarimizning aksariyatida turli toifadagi shaxslar bilan konstruktiv muloqot qilish ko'nikmasi yetishmasligidan dalolat beradi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida ahamiyatli darajadagi natijani ko'rsatgan «kommunikativ konformizm (moslashuvchanlik) yo'nalganlik» omili aslida shaxsning boshqalarni fikr-mulohazalariga to'liq qo'shilishini nazarda tutadi. Mazkur holat bevosita shifokorlarning mehnat tajribasiga ham bog'liqligi kuzatildi. Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan respondentlarda o'rtachadan yuqori natija qayd etildi. Bizga ma'lumki, shaxslararo munosabatlarga shaxsning kommunikativ moslashishi suhbatdoshiga yon berish yoki uni chin dildan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash asosida kechadi. Buni «inson – inson» munosabatlari tizimida «ijtimoiy kutuvlar»ga moslashish hamda guruhiy qadriyatlarni ustun bilish xususiyati bilan bevosita uzviy bog'liq.

Navbatdagi ahamiyatli darajada yuqori darajadagi ko'rsatgich «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» hisoblanadi. Mazkur holat shifokorlarimiz bugungi kunda shaxslararo muloqotni muvaffaqiyatli tashkil etishda ko'proq hollarda muloqot davomida o'z mavqelarini oshirish uchun astoydil harakat qilishlaridan dalolat beradi. Qolaversa, shaxsning «Men» tan olinish istagi ularni atrofdagilar bilan muloqotda «intellektual persepsiv ta'sir» usullaridan samarali foydalanishga undaydi. Agar «kommunikativ konformizm (moslashuvchanlik)ga yo'nalganlik» omili bo'yicha yuqori natija qayd etilganligini hisobga oladigan bo'lsak, bunda shifokorlardagi o'ziga xos tarzda o'z «Men» tasdiqlash bilan bog'liq liderlikka intilish, mehribonlik, muloyim, xushmuomala mutaxassis obrazini yaratish orqali namoyon bo'lishini kuzatamiz.

Kommunikativ omillar orasida shifokorlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lishiga ta'sir darajasi juda past darajadagi mezonlar ham mavjudligi aniqlandi. Shulardan biri «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik» mezonidir. Aslida kommunikativ frustratsiya shaxslararo munosabatlardan ko'zlangan maqsadga erisha olmaslik hamda muloqotdagi psixologik to'siqlar natijasida kelib chiqadigan emotsional holat hisoblanadi. Shifokorlar faoliyatidagi muloqot jarayonining «shifokor–bemor» va «shifokor–jamo» munosabatlarida kommunikativ strategiya va taktikani to'g'ri tanlash bilan bog'liq yuzaga keladigan o'ziga xos vaziyatli (bir vaziyatni har ikki tomon o'z dunyoqarashi asosida tahlil qilishi va munosabat bildirishi) hamda motivatsion (bir holatni har ikki tomonning o'z qadriyatlari tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilishi) psixologik to'siqlar kasbiy kompetentligi past bo'lgan mutaxassislarda kommunikativ frustratsiya holatini keltirib chiqarishi tabiiy holat sanaladi.

Kommunikativ omillarni shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentligini namoyon bo'lishiga ta'sirini tabaqalashtirish asosida «kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik» va «kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik» omillari bo'yicha respondentlarimizning natijalarida ahamiyatli farqlar kuzatilmagan ya'ni, yuqori va past ko'rsatkichlar deyarli bir xil qiymat

orasida reprezentatsiyalashganligi kuzatildi. Mazkur holat shifokorlarda shaxslararo muloqot bilan bog'liq kommunikativ mavhumlikni yengishga bo'lgan harakatlarida muayyan darajadagi muammolar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik motivatsiyasida ham ishonchli farqlar deyarli kuzatilmadi. Har ikkala respondentlar guruhida o'rtachadan past natija qayd etildi. Darhaqiqat, nafaqat tibbiyot muassasalarida, balki, har qanday boshqa tashkilotlaridagi xodimlarda ma'lum darajadagi kommunikativ nomutanosibliklar uchrab turishi tabiiy jarayon sanaladi. Muloqotdagi nomutanosibliklar bevosita muloqotdagi motivatsion, vaziyatli, psixologik to'siqlar bilan belgilanadi. Muloqotdagi mazkur to'siqlar shifokorlarning kasbiy faoliyatida turli xildagi nizolarni, tushunmovchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ushbu mezon bo'yicha yuqori natijalarga erishgan respondentlarimizda bemorlar va hamkasblar bilan amalga oshadigan muloqot jarayonidagi psixologik to'siqlarni yengib o'tish ko'nikmasining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Har bir omil bo'yicha olingan natijalarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, «kommunikativ konformizm (moslashuvchanlik)ga yo'nalganlik» yuqori bo'lgan shaxslarda «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik»ning past darajada, «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» yuqori bo'lganlarda «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlikni» sust darajada bo'lishi tabiiy holat deb qaraladi. Yuqoridagi tadqiqot natijalarimizga asoslanib, shifokorlardagi kommunikativ moslashuvchanlikning ratsional ko'rinishini ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida namoyon bo'lishi natijasida muloqotdagi hamkorlik pozitsiyasini shakllanishi uchun frustratsiyani yengishga yo'nalganlikning hissiy-bilish jihatiga ustuvorlik berish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashimiz darkor. Chunki, kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlikning hissiy-bilish jihati shaxsning «o'zini emotsional qabul qilish», suhbatdoshni «boricha to'g'ri idrok qilish», muloqotdagi noaniqlikka (axborotli, vaziyatli, motivatsion) nisbatan chidamlilik, konstruktiv-tanqidiy tafakkurni o'zida mujassamlashtirib, kasbiy nizolarni prognozlash hamda ularning oldini olish ko'nikmasini rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlikni tadqiq etishning nazariy tahlilida keltirib o'tilgan ma'lumotlar empirik natijalarni sharhlashda metodologik asos sifatida xizmat qilishi natijasida yuqorida mulohaza yuritgan edik. Shu maqsadda nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun maxsus so'rovnoma ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llanildi.

Nevrolog shifokorlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lishida muhim o'ringa ega bo'lgan «sotsial-perseptiv kompetentlik»ni rivojlantirishda «autopsixologik» omilning o'z-o'zini anglash (refleksiv) komponenti ta'siridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik. Buning uchun esa avvalo, «nevrolog - shifokor - bemor» munosabatlari tizimida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining differensiallashuvi tahlil qilindi. Nevrolog shifokorlarning mehnat tajribasiga qarab olingan ko'rsatkichlar quyidagi 4-jadvalda aks ettirildi.

**Nevrolog shifokorlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni  
namoyon bo'lish darajalarining differensial xususiyatlari (n=165)**

Omillar	Besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>1</sub> =75		Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n <sub>2</sub> =90		p
	M	S	M	S	
Sotsial-perseptiv kompetentlik	14,3	2,19	16,7	1,27	0,05
Kommunikativ kompetentlik	15,0	2,37	14,5	1,72	0,22
Kognitiv kompetentlik	13,1	2,28	15,7	1,58	0,05
Autopsixologik kompetentlik	13,7	2,92	14,2	2,19	0,25

Izoh: \* p≤0,05; \*\* p≤0,01.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodikasi orqali har ikkala respondentlar guruhidan olingan natijalar tahlilida ma'lum bir statistik farqlar kuzatildi. Jumladan, «sotsial-perseptiv kompetentlik» (t=-1,72; p≤0,05), «kognitiv kompetentlik» (t=-1,78; p≤0,05) omillari bo'yicha besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan hamda besh yildan ortiq mehnat tajribasi ega bo'lgan nevrolog shifokorlarning natijalari orasida tafovutlar qayd qilindi. «Kommunikativ kompetentlik» (t=1,01; p≤0,22) va «autopsixologik kompetentlik» (t=-1,04; p≤0,25) omillarida esa ishonchli farqlar deyarli kuzatilmadi.

Metodikadagi «sotsial-perseptiv kompetentlik» omili besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan shifokorlarda yuqoriligi kuzatildi. Ya'ni, bemor shaxsini ichki olamini tahlil qila olish, shaxslararo munosabatlarda ular bilan emotsional muloqot o'rnatishishi, hamkasblari bilan psixologik aloqani o'rnatish sifati yuqori darajada ekanligi kuzatildi.

«Kognitiv kompetentlik» omilida ham ishonchli farqlar kuzatildi. Nevrolog shifokorlarning kasbiy faoliyatida uchraydigan psixologik to'siqlarni yengib o'tish, o'zining professional vazifalarni to'g'ri hal qila olish, vaziyatni to'g'ri baholay olish va axborotlarni tahlil qila olish qobiliyati bo'yicha mehnat tajribasiga qarab ma'lum bir darajadagi tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

Metodikamizdagi shkala qiymatlari asosida nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi shkalasida o'zaro samarali munosabatlar, tenglik asosidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va muloqot madaniyatiga alohida e'tibor berishi bilan xarakterlanadi.

Tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan nevrolog shifokordagi emotsional barqarorlikning xavotirlanish darajasini pasayishiga teskari proporsional bog'liqligi tufayli ularda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllantirish mumkin ekanligini aniqlashga qaratilgan vazifamizdan kelib chiqqan holda, tadqiqotda

dastavval ijtimoiy-psixologik kompetentlikni yuqorida sanab o'tilgan omillar bilan o'zaro aloqadorligini aniqlashni lozim topdik. Nevrolog shifokorlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining o'zaro bog'liqligini o'rganish orqali muammoning yangi qirralarini aniqlashga erishdik. Mazkur metodikadan olingan natijalar quyidagi 5-jadvalda aks ettirilgan.

**5-jadval.**

**Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligining kommunikativ va sotsial kompetentlik omillari bilan bog'liqlik jihatlari (n=165)**

<b>Omillar</b>	<b>Sotsial-perseptiv kompetentlik</b>	<b>Kommunikativ kompetentlik</b>	<b>Kognitiv kompetentlik</b>	<b>Autopsixologik kompetentlik</b>
Insonlarni tushunish	0,524*	0,113	0,022	0,059
Vaziyatlarni tushunish	0,423*	-0,028	0,489*	-0,124
Uddaburonlik	-0,218	-0,106	-0,146	0,018
Axloqiy ustanovkalar	-0,101	0,018	0,106	-0,006
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,147	0,123	-0,254	0,102
Emotsional barqarorlik	0,399*	-0,052	0,503*	0,603*
Imidj	-0,020	-0,077	0,086	0,457*
Sotsial psixologik kompetentlik	0,230	0,200	0,247	0,139
Verbal kompetentlik	0,147	0,208	0,127	0,147
Operativ sotsial-psixologik kompetentlik	0,102	0,130	0,312	0,201
Ego kompetentlik	0,149	0,172	0,147	
Kommunikativ kompetentlik	0,123	0,207	0,151	0,170
Ishonchlilik	-0,168	-0,015	0,202	-0,067
Barqaror insoniy munosabatlar	0,520*	0,463**	0,039	0,470*
Kommunikativ shaxslilik imkoniyati	0,401*	0,090	-0,106	0,079

Yuqoridagi 5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan kommunikativ va sotsial kompetentlik omillari orasida korrelyatsion bog'liqlar mavjud. Xususan, «sotsial-perseptiv kompetentlik»ni «insonlarni tushunish» ( $r=0,524$ ;  $p\leq 0,05$ ), «vaziyatni tushunish» ( $r=0,423$ ;  $p\leq 0,05$ ), «emotsional barqarorlik» ( $r=0,399$ ;  $p\leq 0,05$ ), «barqaror insoniy munosabatlar» ( $r=0,520$ ;  $p\leq 0,05$ ), «kommunikativ shaxsiy xususiyatlar» ( $r=0,401$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, «kommunikativ kompetentlik»ni «barqaror insoniy munosabatlar» ( $r=0,463$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, «kognitiv kompetentlik»ni «vaziyatni tushunish» ( $r=0,489$ ;  $p\leq 0,05$ ), «emotsional barqarorlik» ( $r=0,503$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, «autopsixologik kompetentlik»ni esa «emotsional barqarorlik» ( $r=0,603$ ;  $p\leq 0,05$ ), «imidj» ( $r=0,457$ ;  $p\leq 0,05$ ), «barqaror insoniy munosabatlar» ( $r=0,470$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan ijobiy ahamiyatli darajadagi korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodikamizning qolgan omillar bilan deyarli ahamiyatli darajadagi bog'lanishlar kuzatilmadi.

Bizga ma'lumki, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun to'rtta muhim komponent shakllangan bo'lishi zarur. Ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sotsial-perseptiv kompetentlik mezonining rivojlanganligini ko'rsatib beruvchi ichki mexanizm nevrolog - shifokorlarning shaxslarni tushunishi va vaziyatni to'g'ri qabul qilishi bilan bog'liq. Shaxslarning holatini tushunish orqali shaxslararo munosabatlar tizimida o'ziga xos transformatsiya kuzatiladi. Mazkur holatda empatiya holatida ta'sirlanish natijasida yuzaga keladi. Empatiya holatidan ta'sirlanish yuzaga kelishida nevrolog - shifokorlarning emotsional jihatida barqaror bo'lishi talab etiladi. Nevrolog-shifokorlarning emotsional jihatdan barqarorligi shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va nizolarni oldini olish uchun zarur bo'lgan muloqot madaniyati, o'z-o'zini boshqara olishi, o'z hissiyotlarini jilovlash kabilar emotsional intellektning yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Shaxslarni tushunish va ijtimoiy-psixologik muammolarni reflektiv holatlarni anglash nevrolog shifokorlarning professional kompetentligi ortishiga olib kelishi aniqlandi. Nevrolog - shifokorlardagi sotsial-perseptiv kompetentlikni namoyon bo'lishida verbal kompetentlik va kommunikativ xususiyatlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Xususan, nevrolog shifokorlardagi verbal kompetentlik darajasiga psixologik jihatdan ta'sir etishda unumli foydalaniladi. Bunday holatlar shundan dalolat beradiki, verbal hamda noverbal muloqot usullari o'zaro uyg'unlashganligini anglatadi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yana biri – «kommunikativ kompetentlik» sanaladi. Bizga ma'lumki, kommunikativlik, ya'ni, axborot almashinish jarayoni verbal va noverbal ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shu boisdan kommunikativ kompetentlikni verbal kompetentlik bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsiya berishi tabiiy holat sifatida baholanadi. Chunki, axborotni izlash, qabul qilish, uni qayta ishlash va manzilga yetkazishda ikkinchi signallar tizimi bo'lgan so'z, nutqning o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Bizning ongimiz so'zli signallarni qabul qilar ekan, uni tinglovchiga yetkazib berish uchun so'z, nutqqa axloqiy ustanovkalariga asoslangan holda ijobiy emotsiyalar muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlab beradi. Nevrolog - shifokorlarning o'z verbal muloqot imkoniyatlaridan samarali foydalanishi konstruktiv muloqotga asos bo'ladi.

Nevrolog - shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi professionallik darajasida namoyon bo'lishi, autopsixologik kompetentlikka dominantlik qiladi. Shu boisdan autopsixologik kompetentlikda emotsional barqarorlik bilan ijobiy korrelyatsiya kuzatildi. Chunki, autopsixologik kompetentlik nevrolog-shifokorlarning o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini tarbiyalashi, o'zini-o'zi tahlil qilishi, konstruktiv motivatsiya berishi uchun zarur bo'lsa, emotsional barqarorlik nevrolog shifokorlarning o'zini ijtimoiy-psixologik hamda kasbiy «Men»ini emotsional refleksiv darajada qabul qilishi, o'ziga nisbatan kasbiy vaziyatlarni impunitiv usulda tahlil qilishi, nizolar yuzaga kelganda o'zida emotsional barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, nevrolog - shifokorlarning imidji va verbal kompetentligi shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvda belgilovchi xarakterga ega ekanligi autopsixologik kompetentlik bilan bog'liq. Shu boisdan ham nevrolog shifokorlardagi autopsixologik kompetentlik imidj bilan ahamiyatli korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi. Buning mohiyati shundaki, nevrolog - shifokorlarning o'z ustida ishlashi, o'zini-o'zi tahlil qilishi, o'ziga nisbatan konstruktiv tanqidiy munosabat bildirishi va o'z-o'zini tarbiyalashga tayyor bo'lgandagina professional jihatdan ijtimoiy-psixologik imidjini yarata oladi.

Dissertasion tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida nevrolog - shifokorning ijtimoiy-psixologik kompetentligining sotsial kommunikativ kompetentlik bilan bog'liqlik jihatlari tahlil qilindi. Bu orqali ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kommunikativ sifatlar bilan o'zaro bog'liq omillari aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

#### 6-jadval.

#### Nevrolog shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik hamda sotsial-kommunikativ kompetentlikning o'zaro bog'liqlik jihatlari (n=165)

Omillar	Sotsial-perseptiv kompetentlik	Kommunikativ kompetentlik	Kognitiv kompetentlik	Autopsixologik kompetentlik
Kommunikativ-passivlikni yengishga yo'nalganlik	0,433*	0,571*	0,113	0,022
Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik	0,105	0,147	0,389*	0,153
Kommunikativ konformizmga yo'nalganlik	0,313	0,155	0,201	0,057
O'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik	0,215	0,520*	0,142	0,136
Kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik	0,392	0,128	0,139	0,209
Kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik	0,150	0,193	0,203	0,480*

Umuman olganda, nevrolog - shifokorlarning kasbiy faoliyatida namoyon bo'luvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik va unga ta'sir etuvchi psixologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik individual xarakterga ega bo'lib, uni ijtimoiy tajriba, shifokorning psixologik imidji, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Yuqoridagi 6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy-psixologik kompetentlik mezonlari bilan kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik omillari orasida korrelyatsion bog'liqliklar kuzatildi. Xususan, «kommunikativ-passivlikni yengishga yo'nalganlik» - «sotsial-perseptiv kompetentlik» ( $r=0,433$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «kommunikativ kompetentlik» ( $r=0,571$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, «kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik» - «kognitiv kompetentlik» ( $r=0,389$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» - «kommunikativ kompetentlik» ( $r=0,520$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan, «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik» - «autopsixologik kompetentlik» ( $r=0,480$ ;  $p\leq 0,05$ ) omillari bilan ijobiy ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Qolgan barcha omillar bilan ahamiyatli bog'liqlik deyarli kuzatilmagan.

Nevrolog - shifokorlarning muloqotdagi kommunikativ passivlik, faol suhbatdan qochish holatlarini ichki iroda kuchi asosida yengish xususiyatlarining kuchli bo'lishi ulardagi shaxslararo munosabatlardagi shaxslarni tushuna olish va emotsional qo'llab-quvvatlay olish ko'nikmasi hamda atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqotda yaxshi suhbatdosh, tinglovchi bo'la olish xususiyatlari ham yuqori darajada bo'lishi aniqlandi.

«Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik» omili yuqori darajada bo'lgan nevrolog - shifokorlarda kasbiy faoliyatidagi psixologik to'siqlarni yenga olish, faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xildagi ziddiyatlar, bemorlar bilan muloqot paytidagi tushunmovchilik holatlaridan chiqish motivatsiyasi yuqori darajada bo'lishi kuzatildi.

Nevrolog - shifokorlardagi «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» omilining yuqori bo'lishi kommunikativ kompetentlik darajasining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Mazkur holat nevrolog - shifokorlarning atrofdagilarga ta'sir eta olishi, suhbatdoshni tushuna olishi, muloqot jarayonida refleksiyaning ustunligi, muloqotda paralingvistik, ekstralingvistik ta'sir usullaridan samarali foydalana olishi, o'z ustida ishlashi, professional jihatdan o'sishga tayyorligi, ijtimoiy-psixologik tajribalarni o'zlashtirishga moyilligi bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

Tadqiqotda metodikaning so'nggi omili «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik» «autopsixologik kompetentlik» orasida ijobiy darajadagi bog'lanishlar mavjudligi aniqlandi. Buni nevrolog shifokorlarning kuzatuvchanligi, shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvlarda vazminlik bilan yondashishlari, suhbatdoshlarga munosabat bildirishda so'zlarni o'z o'rnida qo'yib ishlatishlari, muomala jarayonidagi ziddiyatli vaziyatlarda ortiqcha hissiyotga berilmaslik va ehtiyotkorlik bilan faoliyatini davom ettirishlari kuzatildi.

Dissertatsiyaning «**Nevrolog shifokorlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobi

muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda kompetentlik omillarini shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik treninglar dasturi, nevrolog-shifokorlarning kasbiy kompetentligi uchun mo'ljallangan dasturning samaradorligini ta'minlaydigan omillarni aniqlash, tajribadan oldin hamda keyingi statistik natijalar tahliliga bag'ishlangan.

Nevrolog - shifokorning o'z tibbiy davolash uslubiga mos «kognitiv sxema»ni yaratishi uchun ijtimoiy muhitdan qabul qilinayotgan ma'lumotlar oqimini «filtrlash», «proyektsiyalash», «ratsionalizatsiyalash» ko'nikmalari shakllangan bo'lishi darkor. Shu nuqtai nazardan nevrolog - shifokorning kasbiy shaxslararo munosabatlari tizimining o'ziga xos tasnifi mavjud. Umumiy tarzda, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy his-kechinmalarga asoslanishi, muammoli vaziyatlarning oson hal bo'lishi, muloqotning ishchan ruhda, shaxsiyatga o'tmagan holda kechishi konstruktivlik belgilari orqali tushuniladi. Soha mutaxassislari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish, shaxslararo munosabatlarda konstruktiv mezonlar quyidagicha ajratiladi (1-rasm).



**1-rasm. Konstruktiv shaxslararo munosabatlar mezonlari.**

«Shifokor-bemor», «shifokor-bemorning yaqinlari» diadalaridagi hamkorlik faoliyatidagi konstruktiv o'zaro munosabat mezonlarining mohiyati quyidagilardan iborat:

- mahsuldorlik (hamkorlikning umumiy maqsadini tushunish, bir-birini anglash, birgalikda harakat qilishga nisbatan yo'nalganlik darajasida ifodalanadi, ya'ni, bemorning o'zi ham shifokor bilan davolanishi kerakligini anglaydi);
- uyushqoqlik (hamkorlikdagi harakatlarning o'zaro muvofiqligi bahsli vaziyatlarda kelishuv yo'lini tanlashga qodir ekanlikda ko'rinadi, ya'ni bemor o'z sog'lig'i bilan bog'liq vaziyatlardagi muammolarni anglaydi, o'zaro kelishuv asosida davolanishga yo'naladi);
- sherikchilik (bir-birining shaxsiy sifatlarini, qiziqishlarini bilish, bir-birini qo'llab quvvatlashga tayyor bo'lish, sherikning tanqidiy bahosidan keyin xulq-

atvorni korreksiyalashga tayyorlikda namoyon bo'ladi, mazkur holatda bemor shifokor bilan bir tomonda turib, uyg'un holda o'z sog'lig'i uchun qayg'uradi);

– emotsional qoniqish (bir-birining fikri va takliflariga e'tiborli bo'lish, bir-birining nuqtai nazarini hurmat qilish, hamkorlikdagi faoliyatda uni hisobga olish, bir-birini yanada yaxshiroq o'rganishga intilish, hamkorlik natijalaridan qoniqishda aks etadi, davolanish istagi va u bilan bog'liq jarayondan emotsional qoniqishni anglatadi).

Tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan nevrolog - shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlarini qo'llash bilan bir qatorda ularning yakuniy natijalarini ikki xil tartibda baholashga erishildi. Xuddi shu singari treninglar dasturi nevrolog - shifokorni kasbiy jihatdan tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

### 7-jadval.

#### Tajriba guruhidagi nevrolog - shifokorlarda sotsial-kommunikativ kompetentlik (SKK) omillari namoyon etilishining qiyosiy ko'rsatkichlari (n=75)

Omillar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
	M <sub>1</sub>	S <sub>1</sub>	M <sub>2</sub>	S <sub>2</sub>	t	p
Kommunikativ-passivlikni yengishga yo'nalganlik	12,9	7,9	15,3	8,6	5,1	,000
Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik	11,8	7,6	11,7	7,9	-1,903	,098
Kommunikativ konformizmga yo'nalganlik	11,7	8,9	13,3	9,4	3,2	,002
O'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik	16,5	7,3	18,2	7,9	4,5	,001
Kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik	11,7	8,0	13,3	8,7	3,3	,003
Kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik	15,4	5,2	17,2	5,8	1,7	,005

Nevrolog - shifokorlarda kasbiy kompetentlik to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglar dasturi Buxoro hamda Navoiy viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat olib borayotgan umumiy hisobda 165 nafar respondentlar ishtirokida o'tkazildi. Biz ularni ikki guruhga ya'ni, tajriba va nazorat guruhlariga bo'lib o'rgandik. Tajriba guruhida 75 nafar, nazorat guruhida esa, 90 nafar shifokor tanlab olindi. Ijtimoiy-psixologik trening dasturi muayyan darajadagi tamoyillarga asoslangan bo'lib, psixokorreksion mashg'ulotlar, individual va guruhli suhbatlar asosida olib borildi. Dastavval N.P.Fetiskin va V.V.Kozlov kabilar tomonidan ishlab chiqilgan metodikani trening dasturidan keyingi natijalari tahlilini ko'rib chiqamiz. So'rovnomaning psixotrening dasturiga va undan keyingi natijalariga ko'ra, olingan natijalar o'rtacha miqdoriy qiymatlar asosida taqqoslandi.

Olib borilgan psixokorreksion va psixotrening dasturi qo'llanilganida, tajriba va nazorat guruhlaridan olingan empirik natijalarni SPSS.22 dasturi asosida qayta ishlangan qiyosiy tahlili o'tkazilgandan so'ng, talabalardagi kreativlik sifatleri ma'lum miqdorda rivojlanganligi kuzatildi. Buni 7-jadval natijalaridan ham bilsa bo'ladi.

Binobarin, 7-jadvalda qayd etilgan birinchi shkala «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik» omili bo'yicha (12,9 va 15,3), «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» to'rtinchi shkalasi omili bo'yicha olingan ma'lumotlar (16,5 va 18,2), ya'ni treningdan avvalgi va keyingi eng yuqori natijalar qayd etildi. Bundan ko'rinib turibdiki, nevrolog shifokorlarda irodaviy sifatlarining to'g'ri shakllanganligi, o'z ustlarida ishlashi, shaxslararo munosabatlar to'g'ri tashkil etishi, ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy persepsiyani ijobiy darajada o'zlashtirganlaridan dalolat beradi. «Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik» omili bo'yicha esa (11,8 va 13,9) past natijadagi farqlar kuzatildi. Buning asosiy sababi nevrolog - shifokorlarda kommunikativ muloqotning to'la shakllanmaganligi va har qanday notipik holatlarda qaror qabul qilishga qiynalishlari bilan izohlanadi.

Endi bevosita metodikadagi qolgan shkala ko'rsatkichlari tahliliga o'tadigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash joizki, aksariyat omillar bo'yicha nevrolog shifokorlarda («kommunikativ konformizmga yo'nalganlik» (11,7 va 13,3) «kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik» omili (12,2 va 14,3) «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik» 15,4 va 17,2) o'rtachadan yuqori ekanligi aniqlandi. Binobarin, nevrolog shifokorlarni o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlar miqdorini belgilagan 6 ta shkala bo'yicha tahlil qilganimizda 1-o'rin «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik» 2-o'rin «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik», 3-o'rin «kommunikativ konformizmga yo'nalganlik» va «kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik», 4-o'rin «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik», 5-o'rinda «kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik» xarakterli ekanligi yaqqol namoyon etildi (7-jadval). Nazorat obyektlaridan olingan natijalar mazkur omillar ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlar deyarli farq qilmasligini aniqlandi.

## XULOSA

Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'ziga xos jihatlari mavzusidagi ilmiy izlanishlarning natijalariga asoslanib quyidagi **xulosalar** taqdim etildi:

1. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik nevrolog shifokorlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi tibbiy, ijtimoiy-psixologik sohalarga oid bilim, ko'nikma va malakalari majmui bo'lib, ularning kasbiy faoliyatida hamda ijtimoiy turmushi davomida muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

2. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning bir qator omillari tadqiq etilganligiga qaramasdan, aynan nevrolog - shifokorlarning kompetentligini ta'minlovchi omillar tadqiq etilmagan va ijtimoiy-psixologik jihatdan empirik asoslanilmagan.

3. Nevrolog shifokorlarning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, ularning professionallik darajasini takomillashuviga xizmat qilishi aniqlandi.

4. Nevrolog shifokorlarda kasbiy kompetentlik to'g'risidagi tasavvurlarni shakllanishi ulardagi sotsial-psixologik kompetentlik, kommunikativ kompetentlik darajalarining o'sishini ta'minlashga xizmat qilishi dalillashtirildi.

5. Nevrolog shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligining ijtimoiy, emotsional va kognitiv komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklar aniqlashtirildi hamda kompetentlik shakllanishi uni rivojlantirishning shart-sharoitlari, mexanizmlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilindi.

6. Tadqiqotimiz davomida o'rganilayotgan muammo bo'yicha amalga oshirilgan empirik tahlillar asosida qo'lga kiritilgan natijalar va ilmiy asoslangan yondashuvlar tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish tizimida, tibbiy oliy ta'lim muassasasida nevrologiya yo'nalishida tahsil olayotgan shifokorlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

7. Nevrolog shifokorlarni o'qitish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish uchun ijtimoiy-psixologik kompetentlik va kognitiv kompetentlik orasidagi aloqadorlikni tadqiq qilish hamda bu omillarning shifokor faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

8. Psixotrening dasturidan avvalgi va keyingi natijalarning statistik jihatdan qiyosiy tahlili kommunikativ passivlikni yengish, axloqiy ustanovkalar, muvaffaqiyat motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, imidj va kommunikativ kompetentlik omillari bo'yicha muayyan darajadagi ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Dissertatsion tadqiqot natijasida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan nevrolog shifokorlar hamkorligini yanada rivojlantirish, muntazam ravishda ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etish, bemorlar bilan shaxslararo muloqotni to'g'ri tashkil etish natijasida samaradorlikka erishiladi.

2. Nevrolog shifokorlar jamoasida to'g'ri shaxslararo munosabatlarni tashkil etish, bemorlarning individual-psixologik xususiyatlarni bilish, bemorlarning

holatlarini adekvat idrok qilish va turli xil kutilmagan vaziyatlarni anglash uchun reflektiv sifatlarni rivojlantirish usullarini tadqiqi etish maqsadga muvofiq.

3. Nevrolog shifokorlarning shaxslararo munosabatlari va kasbiy faoliyati bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda emotsional jihatdan barqarorlikka erishishga intilish, bemorlarga nisbatan tolerant munosabatlarda bo'lish faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Nevrolog shifokorlarni kasbiy kompetentligini shakllantirishda psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirish hamda ularning hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

5. Nevrolog shifokorlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish maqsadida shifokorlarni malakasini oshirish kurslari o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritish va ularning ish tajribasiga qarab kasbiy kompetentlik darajasini psixodiagnostika qiluvchi testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХИКМАТОВ АКМАЛ САДУЛЛОЕВИЧ**

**ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ ВРАЧЕЙ НЕВРОЛОГОВ**

**19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология.**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Бухара – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.3.PhD/P612.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного Совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Назаров Акмал Мардонович  
доктор психологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** Уразбаева Дилбар Абдуллаевна  
доктор психологических наук (DSc), доцент

Мухторов Эркин Мустафаевич  
кандидат психологических наук, доцент

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «13» апреля 2024 года в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета Phd.03/30.12.2019.Psi.72.06 при Бухарском государственном университете. Главное здание Бухарского государственного университета, 2-й этаж, зал заседаний. (Адрес: 200118, город Бухара, улица Мухаммада Икбола, дом 11. Тел. + 998 365 221-29-14; факс: + 998 365 221-27-57; e-mail: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № А 1601). (Адрес: город Бухара, улица Мухаммада Икбола, дом 11. Тел.: + 998 65 221-29-14; факс: + 998 65 221-27-07. Главное здание Бухарского государственного университета, 2-й этаж).

Автореферат диссертации разослан «30» марта 2024 года  
(протокол реестра рассылки № 19 от «30» марта 2024 года).



А.М. Жабборов  
заместитель председателя Научного совета  
по присуждению ученых степеней, доктор  
психологических наук, профессор

Ш.Ш. Рустанов  
ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
философии по психологическим наукам  
(PhD)

А.А. Хусейнова  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор философских наук,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире уделяется особое внимание вопросам подготовки квалифицированных, качественных кадров, обладающих современными знаниями, самостоятельным мышлением, компетентности специалистов. В настоящее время самой важной особенностью подготовки современных кадров является не только передача специалистам знаний по их специальности, но и актуальная значимость вопроса социально-психологической компетентности врачей. Проблема компетентности врачей указана в качестве специального указания в программах ЮНЕСКО в 90-х годах XX века<sup>1</sup>. В соответствии с данными престижного журнала с сфере медицины «The Lancet» выявлено, что в 2022 году в мире к числу стран с самой большой численностью врачей на 10 тысяч человек населения относились Канада, Швейцария, Италия и Россия, в этих государствах на 10 тысяч человек населения приходилось 50-66 человек врачей и более 60 человек вспомогательных медицинских работников. В мире одними из актуальных проблем являются специфическим образом реализуемые эмпирические исследования, особенно, по таким направлениям, как требования, устанавливаемые к деятельности врачей-неврологов, повышение их профессионального, личностного и интеллектуального потенциала, изучение проблемы компетентности в социально-психологическом аспекте.

В исследованиях, реализуемых в мировом масштабе научно-исследовательскими центрами и высшими образовательными учреждениями, уделяется особое внимание научным изысканиям по таким направлениям, как изучение социально-психологических основ компетентности врачей-неврологов, формирования профессиональной компетентности, разработка комплекса специальных программ, направленных на исследование показателей и совершенствование механизмов социально-психологической компетентности. Считается, что успешное внедрение в практику результатов этих научных исследований является одной из основных причин достижений в современной медицине до сегодняшнего дня. В настоящее время внедряется «Обоснованная фактами медицина» (на английском языке «Evidence Based Medicine»), признанная и применяемая в очень многих государствах. В государствах мира одним из основных факторов, определяющих вхождение современной медицины и её развитие, является обладание врачами, осуществляющими деятельность в этих государствах, современными медицинскими знаниями, понимание этих знаний, принятие и применение новшеств. Вместе с тем, наблюдается необходимость уделения внимания научным исследованиям, направленным на повышение уровня психологической подготовки врачей-неврологов, выявление социально-психологических факторов и механизмов совершенствования, формирующих компетентность, повышение эффективности деятельности.

---

<sup>1</sup> Naisbitt J., Aburdene P. Mega-trends 2000. - N.Y., 1990; Towards developing new teacher competencies in response to mega-trends in curriculum reforms. - Bangkok, 1992.

В нашей республике за последние годы создаются особые необходимые нормативно-правовые основы коренного реформирования системы здравоохранения, дальнейшего совершенствования системы подготовки кадров и повышения уровня профессиональной подготовки специалистов сферы. Намечена следующая приоритетная задача: «Дальнейшее реформирование сферы здравоохранения, прежде всего первичного звена, скорой и экстренной медицинской помощи, направленное на повышение доступности и качества медицинского и социально-психологического обслуживания населения, формирование здорового образа жизни населения, укрепление материально-технической базы медицинских учреждений»<sup>2</sup>. В научных исследованиях, проводимых по совершенствованию компетентности врачей-неврологов, создаются возможности для поиска и нахождения новых решений.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации широкомасштабных стратегических мер, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 7 декабря 2018 года № УП-5590 «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 13 февраля 2019 года № ПП-4190 «Об утверждении Концепции развития службы охраны психического здоровья населения Республики Узбекистан на 2019 — 2025 годы», от 25 мая 2021 года № ПП-5124 «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения», а также других нормативно-правовых документах по данной деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства, и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Несмотря на то, что проблема социально-психологической компетентности врачей-неврологов не изучена именно как предмет исследования, такими учёными, как Ш.Х.Абдуллаева, Н.Д.Ахмедова, З.Р.Ибодуллаев, И.М.Латипов, Р.Н.Мелибаева, Д.У.Мамадиярова, Ю.К.Нарметова, Д.А.Собирова и другие, проведены научные исследования вопросов профессиональной компетентности медицинских работников, медицинской психологии.

Таковыми учёными стран Содружества Независимых Государств, как Е.А.Александровский, В.Агеев, Д.М.Арапов, А.В.Батарцев, В.М.Блейхер, М.Бобнева, И.Демидова, В.М.Зайцев, Е.Макаров, М.Милейко, В.Н.Мясищев, Ю.Саричева, Г.В.Старшенбаум, Е.Щёлкова и другие, проводили научные исследования по задачам лечения и восстановления больных, страдающих

---

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». - <https://lex.uz/docs/3107042>

нейропсихическими и психосоматическими заболеваниями, социальной реабилитации больных.

В изысканиях таких зарубежных исследователей, как Т.Бучанан, М.Ф.Греен, Г.Ж.Жогерст, А.Жорм, З.С.Насреддине, Н.А.Филлипс, А.Пуенте и другие, проведена практика использования средств психологической диагностики в отдельных случаях лечения заболеваний, научно исследованы медицинские и социально-психологические аспекты профессиональной компетентности.

